XALQ DEPUTATLARI GURLAN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 13-aprel VII-23-34-12-171-K/26 Gurlan tumani

Gurlan tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tumandagi markaziy ko‘chalar bo‘yidagi chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha ta’riflarni belgilash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qaroriga asosan xalq deputatlari Gurlan tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Gurlan tumanning markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatlarini koʻrsatish uchun to‘lov tariflari **ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga:

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-387-sonli qarorida berilgan topshiriqlarni o‘z muddatlarida bajarish;

tumanning markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatlarini koʻrsatish;

tasdiqlangan tariflarning belgilangan tartibda qo‘llanilishini ta’minlash;

xizmatlardan foydalanuvchi subyektlarga tariflar to‘g‘risida axborot berilishini ta’minlasin.

4. Gurlan tuman Obodonlashtirish boshqarmasining maishiy chiqindilar, agrotexnik ishlov berishdan hosil bo‘ladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabbalari, barglari) hamda maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish

bo‘yicha xizmatidan tadbirkorlik subyektlarining foydalanishi ixtiyoriy qilib belgilansin.

4. Tuman ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi hamda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi, tuman obodonlashtirish boshqarmasi bilan birgalikda ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning insonlar sog‘ligiga zararli ta’sirini oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holat sifatini oshirish choralarini ko‘rib borsin.

5. Tuman hokimligining axborot xizmati bo‘limi (O.Jabberganov) tuman hokimligi bosh yuriskonsulti (J.A.Urazbaev);

mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirsin;

Gurlan tuman Obodonlashtirish boshqarmasi bilan birgalikda ushbu qarorning mazmun mohiyatini aholiga tushintirish ishlarini olib borsinlar.

7. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy o‘tgach kuchga kirad.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi N.Azimjonov zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi **XUDAYAROV SHOKIR RADJAPOVICH**

Xalq deputatlari Gurlan tumani
Kengashining
2026-yil 13-apreldagi
VII-23-34-12-171-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Gurlan tumanning markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatlarini koʻrsatish uchun toʻlov tariflari

Xizmat koʻrsatiladigan shaxslar	**Xizmat koʻrsatish turi**	**Oʻlchov birligi**	**Tarif miqdori (soʻm)**
Tadbirkorlik subyektlari uchun	Maishiy chiqindilar	m^3	58 000
Tadbirkorlik subyektlari uchun	Obodonlashtirish	m^2	700